

“TASDIQLAYMAN”

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri



K.A. Sharipov

“20” *febral* 2025-y.

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zmilliybank” AJ Boshqaruv
raisi



A.K. Mirsoatov

“20” *febral* 2025-y.

**Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha
“KELAJAKKA QADAM” DASTURI**

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	“Kelajakka qadam” markazlari faoliyatini tashkil etish.	1. “Kelajakka qadam” markazlari (keyingi o‘rinlarda – Markaz) faoliyatini tashkil etish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Hududlardagi markaz bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish uchun oliy ta’lim tashkilotlarini tanlash va binosidan joy ajratish, ajratilgan xonalarni moddiy-texnika va jihozlar bilan ta’minlash, saqlash xarajatlarini qoplanishini yo‘lga qo‘yish. 3. Hududlardagi markazlar faoliyatini amalga oshirish uchun tanlangan oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari hamda muayyan hududdagi “O‘zmilliybank” AJ vakillarini mas’ul etib belgilash va ularning hamkorligini tashkil etish.	2025-yil mart 2025-yil I-chorak 2025-yil I-chorak	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “O‘zmilliybank” AJ, oliy ta’lim tashkilotlari, “Kelajakka qadam” markazi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	“Kelajakka qadam” dasturini amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish.	1. Bitiruvchi talabalar uchun “Biznes g'oyadan – tayyor loyihagacha” tayyor uslubiy qo'llanmasini yaratish. 2. Talabalarni kasbga tayyorlash va ularning kasbiy amaliyotini tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma yaratish.	2025-yil mart	O'zmilliybank” AJ “Kelajakka qadam” markazi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'lim tashkilotlari
3.	Bitiruvchi va quyi bosqich talabalar ta'lim shakllari, yo'nalishlari va mutaxassisliklari to'g'risida real vaqt rejimida ma'lumotlar almashuvini yo'lga qo'yish.	1. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalar to'g'risida belgilangan shaklda ma'lumotlarni Markazga muntazam ravishda taqdim qilish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tezkor olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lumotlar bazasini (HEMIS) Markaz onlayn platformasiga integratsiya qilinishiga ko'maklashish.	2025-yil martdan boshlab Markaz onlayn platformasi ishga tushirilgandan so'ng ikki oy muddatda	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, “Kelajakka qadam” markazi
4.	Oliy ta'lim tashkilotlari, talabalar, ish beruvchilarni raqamli platforma orqali bog'lashni nazarda tutuvchi bitiruvchilarni ishga joylashishiga ko'maklashish tizimini joriy qilish.	1. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayonlarini monitoring qilish, rasmiy band bo'lgan va o'zini-o'zi band qilgan talabalar, salohiyatli ish beruvchilar, shu jumladan, ish qidirayotgan oliy ma'lumotli mutaxassislar va ish beruvchilarni bog'lovchi raqamli platformani yaratishning texnik talablarini ishlab chiqish.	2025-yil II-chorak	“O'zmilliybank” AJ “Kelajakka qadam” markazi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Outsorsing asosida maxsus platforma yaratish bo'yicha milliy va xalqaro kompaniyalarni jalb qilish; 3. Texnik talablarga asosan bitiruvchilarni ishga joylashishiga ko'maklashishga qaratilgan to'liq raqamlashtirilgan onlayn platforma ishlab chiqish.	2025-yil II-chorak belgilangan muddatlarda	
5.	Bitiruvchilar biznes g'oyalarini tayyor loyihaga olib borish jarayoniga to'liq hamrohlik qilish amaliyotini joriy qilish.	1. Bitiruvchilar o'rtasida biznes g'oyasi mavjudligini aniqlash maqsadida onlayn so'rovnomalar o'tkazilishini tashkil qilish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlarida bitiruvchi talabalar bilan jonli muloqotlar tashkil etish va ularning istiqboldagi rejalarini o'rganish. 3. O'rganish jarayonida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagi bo'lgan bitiruvchi talabalar ro'yxatini shakllantirish. 4. Biznes ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha talabalarga mahorat darslari va treninglar o'tkazish. 5. Biznes reja ishlab chiqish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar bilan tanishtirish va biznes loyahasini amalga oshirish uchun kredit olish maqsadida bankning qulay filialiga tavsiya qilish.	2025-yil II-chorak 2025-yil II-chorak	Oliy ta'lim tashkilotlari, "O'zmilliybank" AJ, "Kelajakka qadam" markazi "Kelajakka qadam" markazi
6.	Bitiruvchi bosqich talabalarining biznes loyihalarini qulay shartlarda kreditlash.	1. O'z biznes g'oyalarini amalga oshirish istagi bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchi bosqich	2025-yil davomida	"O'zmilliybank" AJ, "Kelajakka qadam" markazi,

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		talabalari uchun qulay shartlarda yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish. 2. Ijtimoiy soliq to'lagan o'zini-o'zi band qilgan oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchi bosqich talabalariga mikroqarzlar hamda ularning tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish.		oliy ta'lim tashkilotlari
7.	Salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma'lumotli mutaxassislariga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni shakllantirish.	1. Oliy ma'lumotli mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni aniqlash yuzasidan yirik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 2. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqishda Muvofiqlashtiruvchi kengashlarning sohalar bo'yicha asosiy ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan hamkorligini ta'minlash. 3. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining malaka talablarida oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan zamonaviy ko'nikmalarni belgilash hamda fanlar katalogida ushbu maqsadlarga mos fanlar kiritilishini ta'minlash.	2025-yil II-chorakdan boshlab 2025-yil III-chorak 2025-yil III-chorak	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'lim tashkilotlari

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	Bitiruvchi va quyi bosqich talabalari o'rtasida sohalar bo'yicha ochiq tanlovlar o'tkazish.	1. Sohalar bo'yicha ochiq tanlovlar o'tkazish tartibini ishlab chiqish. 2. Sohalar bo'yicha tayanch oliy ta'lim tashkilotlarini belgilash va ularda tanlov komissiyalarini shakllantirish. 3. Sohalar kesimida ish beruvchilarning oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talablari asosida nomzodlarni saralash va tanlov mezonlarini shakllantirish.	2025-yil davomida	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'lim tashkilotlari, "Kelajakka qadam" markazi
9.	Tanlov g'oliblarini individual kasbiy ta'lim dasturlari asosida kasbiy amaliyot o'tash tadbirlarini moliyalashtirish.	1. Kadrlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan korxona va tashkilotlar bilan kelishuvlarni amalga oshirish. Bunda ushbu korxona va tashkilotlarning kadrlarga bo'lgan talablari hamda istiqbolda bitiruvchilarni ishga qabul qilish imkoniyatlari o'rganiladi. 2. Ish beruvchi korxona va tashkilotlarning talab va takliflariga asosan kasbiy amaliyoti moliyalashtiriladigan talabalar ro'yxatini shakllantirish. 3. Kasbiy amaliyoti moliyalashtiriladigan talabalar soni, kasbiy amaliyot o'tash joyi, ish beruvchi korxona, tashkilotlar faoliyatining samaradorligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, talabgorlar o'rtasida tanlovlar o'tkazish.	2025-yil davomida	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zmilliybank AJ, oliy ta'lim tashkilotlari, "Kelajakka qadam" markazi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		4. Tanlov g'oliblari uchun ish beruvchilar buyurtmasi asosida individual kasbiy amaliyot dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 5. Talabalarning pul to'lanadigan kasbiy amaliyotini tashkil etish va istiqbolda ishga joylashishini ta'minlashni nazarda tutgan holda "oliy ta'lim tashkiloti – talaba – ish beruvchi korxona, tashkilot" o'rtasida uch tomonlama shartnoma imzolanishini ta'minlash. 6. Kasbiy amaliyotni moliyalashtirish maqsadida talaba tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotiga belgilangan miqdordagi mablag'larni o'tkazish.		O'zmilliybank AJ, "Kelajakka qadam" markazi, oliy ta'lim tashkilotlari
10.	Bitiruvchilarning ishga joylashishiga ko'maklashish maqsadida mehnat yarmarkalarini hudud va OTTlar kesimida tashkil etish.	1. Salohiyatli ish beruvchilar tomonidan bo'sh ish o'rinlari bo'yicha taqdimotlarini tashkil etilishini ta'minlash. 2. Ish beruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari bilan bevosita suhbat o'tkazish imkoniyatini yaratish. 3. Mehnat yarmarkalari jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish orqali ushbu yarmarkalarga ish beruvchi korxona va tashkilotlar hamda bitiruvchi talabalarni keng jalb qilish.	2025-yil aprel-may	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "O'zmilliybank" AJ, oliy ta'lim tashkilotlari, "Kelajakka qadam" markazi